



№ 103

2024 yil «14» «may»

Bankda xaridlar bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlashni amalga oshirish va tenderni o'tkazish maqsadida Bankning 2024-yil 4-martdagi 28-sonli buyrug'i bilan bankning tender va xarid komissiyalari tarkibi tasdiqlangan.

Bank Boshqaruvining 2024-yil 15-fevraldagi 75-sonli Qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibi"ning yangi tahriri tasdiqlandi.

Ushbu tartibga asosan tanlash va tender savdolarini o'tkazish uchun kamida 5 (besh) kishidan iborat bo'lgan "Xarid komissiyasi" hamda kamida 7 (yetti) kishidan iborat bo'lgan "Tender komissiyasi"ni tuzish, komissiya a'zolarining tarkibi va soni olinadigan tovar (ish, xizmat) larning xususiyatlarini inobatga olgan holda buyurtmachining tegishli buyrug'i bilan tuzilishi va tarqatib yuborilishi belgilangan.

Shuningdek, Tranzaksion banking departamentning 2024-yil 17-apreldagi 2376-sonli bildirishnomasida, bankning tender komissiyasi tarkibiga departament direktorining birinchi o'rinbosari D.Parmanov o'rniga direktor o'rinbosari X.Abdullaevni kiritilishi so'ralgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh bankda xaridlarni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etish hamda kollegial organlar rahbarlari va a'zolari o'rtasidagi ish hajmini to'g'ri taqsimlanishini tashkil etish maqsadida,

#### **BUYURAMAN:**

1. Bankda Tender komissiyasi quyidagi tarkibda tuzilsin:

Tender komissiyasi raisi - A.Ergashev - Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari v.b;

Tender komissiyasi raisi o'rinbosari - A.Xujamuratov - Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti direktori v.v.b;

Tender komissiyasi a'zolari:

F. To'rayev - Ma'muriy xo'jalik departamenti direktori;

A. Kenjayev - Axborot texnologiyalari departamenti direktori v.v.b;

X. Abdullayev - Tranzaksion banking departamenti direktori o'rinbosari;

M.Karimov - Bank karta tizimlarini qo'llab-quvvatlash departamenti direktori;

O. Sulaymonov - Yuridik departamenti, boshqarma boshlig'i;

2. Bankda Xarid komissiyasi quyidagi yangi tarkibda tuzilsin:

Xarid komissiya raisi - D.Umarov - Boshqaruv Raisining o'rinbosari v.b. ;

Xarid komissiya raisi o'rinbosari - A.Xujamuratov - Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti direktori v.v.b;

Xarid komissiyasi a'zolari:

F. To'rayev - Ma'muriy xo'jalik departamenti direktori;

A. Kenjayev - Axborot texnologiyalari departamenti direktori v.v.b;


Sh. Bekmurzayev - Yuridik departamenti, boshqarma boshlig'i o'rinbosari;

3. Komissiya a'zosi mehnat yoki o'quv ta'tilida, vaqtincha mehnatga layoqatsiz yoxud xizmat safarida bo'lganida, vazifasi vaqtinchalik yuklatilgan yoki lavozim yo'riqnomasi bo'yicha vazifasini bajaruvchi shaxs komissiyada ishtirok etadi.

Komissiya a'zosi boshqa ishga o'tganda, u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki vazifasini bajarish zimmasiga yuklangan shaxs kiradi.

4. Shu munosabat bilan Bankning 2024-yil 4-martdagi 28-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari v.b. A.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv Raisi:**



**A.Akbarjonov**

kelishuvchilar: A.Ergashev, B.Uzaqov, D.Umarov, A.Xujamuratov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=oW41oR21&id=15182f97-065c-4938-aba6-c917bdde686c>